



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 166 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	154
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	158
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	



O'QUV JARAYONIDA INNOVATSION BAHOLASH TEXNOLOGIYALARINING ILMIY-PEDAGOGIK MAZMUNI

Sobirova Marjona Shavkat qizi
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi



Annotatsiya: Mazkur maqola o'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Maqolada innovatsion baholash texnologiyalarining mazmun-mohiyati, tasnifiy xususiyatlari, pedagogik, psixologik va didaktik asoslari, shuningdek ularni o'quv jarayoniga joriy etishning amaliy mexanizmlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Ishning asosiy maqsadi o'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-metodologik asoslarini aniqlash, ularning ta'lim sifati va natijadorligiga ta'sirini ochib berish hamda baholash faoliyatini zamonaviy pedagogik talablar asosida takomillashtirish yo'llarini asoslashdan iborat. Maqolani yozish jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy yondashuv, tizimlashtirish, umumlashtirish va pedagogik talqin metodlaridan foydalanildi. Natijada innovatsion baholash texnologiyalari baholashni oddiy nazorat vositasidan rivojlantiruvchi, tahliliy va boshqaruvga yo'naltirilgan pedagogik tizimga aylantirishi asoslab berildi. Shuningdek, raqamli va interfaol baholash vositalarining o'quvchilar faolligini oshirish, teskari aloqani kuchaytirish, individual yondashuvni ta'minlash va ta'lim natijalarini aniqroq aniqlashdagi amaliy ahamiyati yoritildi.

Kalit so'zlar: baholash, innovatsiya, texnologiya, innovatsion baholash, nazorat, axborot, diagnostik baholash, reflektiv qobiliyat, kompetensiyaviy yondashuv, analitik tahlil, kommunikativ vazifa, pedagogik, psixologik va didaktik asos, portfolio, reflektiv kuzatuv, ilmiy tayanch.

Abstract: This article is devoted to the investigation of the theoretical and practical foundations of innovative assessment technologies in the educational process. The study systematically analyzes the essence, classification characteristics, pedagogical, psychological, and didactic foundations of innovative assessment technologies, as well as the practical mechanisms for their implementation in educational practice through a comprehensive systemic approach. The primary objective of the research is to identify the scientific and methodological foundations of innovative assessment technologies in the educational process, reveal their impact on the quality and effectiveness of education, and substantiate approaches for improving assessment practices in accordance with contemporary pedagogical requirements. In the course of the study, methods such as scientific literature analysis, comparative approach, systematization, generalization, and pedagogical interpretation were employed. The findings demonstrate that innovative assessment technologies transform assessment from a conventional monitoring tool into a developmental, analytical, and management-oriented pedagogical system. Furthermore, the study highlights the practical significance of digital and interactive assessment tools in enhancing student engagement, strengthening feedback mechanisms, ensuring an individualized approach to learning, and providing a more accurate evaluation of educational outcomes.

Key words: assessment, innovation, technology, innovative assessment, control, information, diagnostic assessment, reflective ability, competency-based approach, analytical analysis, communicative task, pedagogical, psychological and didactic foundation, portfolio, reflective observation, scientific basis.

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию теоретических и практических основ инновационных технологий оценивания в образовательном процессе. В статье на основе системного подхода проанализированы сущность и содержание инновационных технологий оценивания, их классификационные характеристики, педагогические, психологические и дидактические основы, а также практические механизмы их внедрения в образовательный процесс. Основной целью исследования является выявление научно-методологических основ инновационных технологий оценивания в образовательном процессе, раскрытие их влияния на качество и эффективность образования, а также обоснование путей совершенствования оценочной деятельности в соответствии с современными педагогическими требованиями. В процессе подготовки статьи были использованы методы анализа научной литературы, сравнительного подхода, систематизации, обобщения и педагогической интерпретации. В результате исследования было обосновано, что инновационные технологии оценивания трансформируют оценивание из традиционного средства контроля в развивающую, аналитическую и управленчески ориентированную педагогическую систему. Кроме того, раскрыта практическая значимость цифровых и интерактивных средств оценивания в повышении учебной активности обучающихся, усилении обратной связи, обеспечении индивидуального подхода и более точном определении образовательных результатов.

Ключевые слова: оценивание, инновация, технология, инновационное оценивание, контроль, информация, диагностическое оценивание, рефлексивная способность, компетентностный подход, аналитический анализ, коммуникативная задача, педагогическая, психологическая и дидактическая основа, портфолио, рефлексивное наблюдение, научная основа.

KIRISH

Insoniyat yangi asrga ulkan ilmiy va texnik yutuqlar bilan qadam qo‘ymoqda, bu esa insonning dunyo va undagi o‘z o‘rni haqidagi tasavvurini tubdan o‘zgartirmoqda. Elektron-axborot tizimlari besh milliarddan ortiq sayyora aholisiga nafaqat har xil mamlakatlardagi voqealardan zudlik bilan xabardor bo‘lish, balki ularni ko‘rish imkonini ham bermoqda. Bunday sharoitda inson hayotining makon-vaqt doiralari sezilarli darajada kengaymoqda, uning dunyoqarashi o‘zgarib bormoqda; u hayotini global miqyosda fikrlash mezonlari bilan baholay boshlaydi. “Jahon sivilizatsiyasi”, “jahon madaniyati”, “umuminsoniy qadriyatlar” kabi tushunchalar doimo ommaviy axborot vositalarida, ilmiy bahslarda va qonun hujjatlarida tilga olinmoqda.

So‘nggi yillarda pedagogik adabiyotlarda “ta’limiy makon” iborasi keng qo‘llanila boshladi. Bu ibora dunyodagi va uning mintaqalaridagi ta’lim holatini tasvirlashda ishlatilmoqda. Ta’lim sohasidagi integratsiya unsurlari global ta’limiy makon shakllanayotganidan dalolat bermoqda. Bu makon “jahon ta’lim siyosati” tomonidan yo‘naltiriladi, u mamlakatlar oldiga umumiy maqsadlar qo‘yadi, mazmun, uslub va ta’lim vositalariga yondashuvlarni belgilab beradi, ta’lim xizmatlari almashinuvini ta’minlaydi. Bugun jahon hamjamiyatining muvofiqlashtirilgan ta’lim siyosati zarur bo‘lib qoldi. Bu siyosat umumiy qadriyatlar va maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, shu sababli ta’lim sifati muhim ijtimoiy-pedagogik toifa sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ta’lim sifati - bu jamiyat ehtiyojlari va kutganlariga mos holda yosh avlodda ijtimoiy va ta’limiy kompetensiyalarni shakllantirish zarurligini asoslovchi universal kategoriya bo‘lib, millatning intellektual salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirishning muhim omilidir. Bilimlarni tekshirish va baholash yondashuvlari, bir tomondan, tarixiy shakllangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ular qabul qilingan ta’lim siyosatini aks ettiruvchi ideologik asosga ega.

Yurtimiz ta’lim tizimi hozirda muhim va mas’uliyatli rivojlanish bosqichida turibdi. Shu bois, zamonaviy bosqichdagi asosiy vazifalardan biri - ta’lim sifatini kafolatlash, uning jamiyat, shaxs va davlatning dolzarb hamda istiqbolli ehtiyojlariga mosligini ta’minlashdan iborat. Ta’lim tizimi rivoji hukumatimiz tomonidan belgilangan uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liq. Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimi jahon ta’lim tizimi bilan integratsiyalashuvni muhim vazifa qilib qo‘ygan. Bu jarayonda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha jahon tendensiyalarini hisobga olish zarurati tug‘ilmoqda.

XXI asr ta’lim tizimi globallashtirish va raqamli texnologiyalarning jadallik bilan rivojlanishi sharoitida tub o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Innovatsion ta’lim muhiti, ilg‘or pedagogik texnologiyalar va zamonaviy baholash usullaridan foydalanish bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. An’anaviy baholash tizimlari, asosan, yakuniy natijaga asoslangan bo‘lsa, innovatsion metodikalar jarayonni tahlil qilish, formativ baholash va shaxsiy yondashuvni ta’minlash orqali ta’lim samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilimni baholash nafaqat ularning o‘quv jarayonidagi yutuqlarini aniqlash, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishda muhim omil hisoblanadi. Shu boisdan, innovatsion ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilimni baholash metodikasini takomillashtirish hozirgi zamon pedagogikasining dolzarb masalalaridan biridir.

Respublikamizdagi jamiki ta’limiy islohotlarning tub zamirida, albatta, bugungi yosh avlodning porloq kelajagini ta’minlash masalasi yotibdi. Mustaqillikning ilk yillaridayoq bu borada qabul qilingan bir qator qonun va hujjatlar fikrimizni dalillay oladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, ushbu sohadagi islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishga



mo'ljallangan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda uning uzviy davomi sifatida "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi", "2022-2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 134-sonli Prezident farmoni¹, O'zbekistonning jahon reytingidagi nufuzini yuqoriga ko'tarish maqsadida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" hamda "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni keltirib o'tish o'rinli bo'ladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarni bugungi taraqqiyotning shiddatli davriga mos qilib tarbiyalash to'g'risida aytib o'tgan fikrlari ushbu tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishning naqadar ahamiyatli ekanini isbotlaydi: "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat"² [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilimni baholash masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida uzoq yillardan buyon tadqiq etilib kelinmoqda. An'anaviy baholash usullarining nazariy asoslari J.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, L.S.Vygotskiy kabi klassik pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa, zamonaviy ta'lim jarayonida formativ va summativ baholash usullarini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy ishlar V.P.Bespalko, A.A.Verbitskiy, D.B.Elkonin, V.V.Davydov kabi olimlar tomonidan olib borilgan. B.G.Ananyev pedagogik baholashning ob'ektivligini, L.I.Bojovich, N.G.Morozova, A.B.Orlovlar baholashni o'quv faoliyatining mayli sifatida tadqiq qilganlar. L.I.Bojovich, A.I.Lipkina, L.A.Ribak, O.Belorikinalar baholashning o'quvchining o'z-o'zini baholashga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganganlar. V.M.Polonskiy tomonidan ta'lim jarayonida vujudga keladigan baholash jarayonining muhim ahamiyat kasb etishi ochib berilgan.

O'zbekiston ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilimni baholash masalasiga oid ilmiy-tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim islohotlari doirasida rivojlantirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "Milliy baholash tizimi" hamda ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar baholash metodikasini takomillashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, pedagogik baholashning yangi yondashuvlari bo'yicha O'zbekistonda bir qator olimlar, jumladan, Sh.T.Qosimov, B.X.To'rayev, D.A.Nishonova, G.T.Jo'rayev kabi mutaxassislar tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy hamda Abdulla Avloniyar tomonidan yaratilgan asarlarda tafakkur masalalari markaziy o'rinda turadi. Bundan tashqari, o'quvchilar bilish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishning didaktik asoslari X.P.Nazarova, R.A.Mavlonova, G.I.Shukin, B.R.Adizov, M.G.Davletshin, R. Safarova, R. Ibragimov, T.N.Najmitdinova; o'quvchilar mustaqil ta'limi va uni tashkil etishning pedagogik asoslari J.Tolipova, Z.Nishanova, E.I.Zakinov, O'.K.Tolipov, O.A.Qo'ysinov, N.Xalilov, Sh.Yunusova, S.R.Abdalovalarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlarida o'quvchilar mustaqil ta'limini tashkil etishning asosiy shakl va prinsiplari E.M.Boxoriskiy va I.V.Komarov; "kompetensiya", "loyihalash texnologiyalari" tushunchalarining ilmiy ma'nosi V.A.Bolotov, A.N.Daxin, I.D.Frumin, T.I.Shamov, A.V.Tixonenko, I.S.Yakimanskiy, A.V.Xutorskoy, V.I.Baydenko, E.F.Zeer, Yu.Tatur, S.G.Vorovshikov tomonidan tadqiq etilgan.

Chet el olimlaridan J.Valjarven, M.Uljens, S.T.Xopman, G.Brinik, M.Metzl, J.Sachs, P.Saxlberg, X.Nismi, A.Toom, A.Kallionemi, Jakkusivonen, G.Sukermanlarning ilmiy izlanishlarida ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash, ta'lim jarayoniga PIRLS xalqaro baholash dasturini tatbiq etish masalalari o'z ifodasini topgan.

Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion baholash metodikalari bo'yicha xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar ham mavjud. Xususan, PISA (Programme for International Student Assessment), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) kabi xalqaro baholash dasturlari va ularning metodologik asoslari ta'lim sifatini aniqlash va baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. YUNESKO, Jahon banki, OECD kabi tashkilotlarning ta'limni baholash bo'yicha ilmiy izlanishlari innovatsion baholash yondashuvlarini kengroq tadqiq qilishga imkon beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bilimni baholash jarayoni tarixiy jihatdan uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tgan. Dastlabki davrlarda u og'zaki va noformal bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda u raqamli, ko'p mezonli va shaxsga yo'naltirilgan ko'rinishga ega. Zamonaviy baholash tizimlari o'quvchi (yoki talaba) faoliyatini chuqur tahlil qilish, rivojlanishiga ko'maklashish va mustaqil fikrlashga yo'naltirishga xizmat qilmoqda.

¹ <https://lex.uz/docs/6008663>

² <https://yuz.uz/uz/news/109388>

XX-XXI asrga kelib, xalqaro maydonda ta'lim sifatini baholashda yangi tamoyillar paydo bo'ldi:

- o'quvchilarning mustaqil faoliyati va hayotiy kompetensiyalarini aniqlash;
- shaxsiy yondashuv asosida baholash;
- testlar orqali emas, balki real hayotiy vazifalar orqali baholash (masalan, PISA tadqiqotlari).

Bu holat, o'z navbatida, aksiologik yondashuvni (ya'ni baholashda qadriyatlar, maqsadlar va shaxsiy yutuqlarni inobatga olish) birinchi o'ringa olib chiqdi. Endi o'quvchilar faqat bilimni qayta aytib beruvchi emas, balki uni amalda qo'llay oluvchi, muloqotga kirisha oluvchi, mas'uliyatli shaxs sifatida rivojlanishi kerak. Shuning uchun ta'lim sifatini baholashda aksiologik asoslar, ya'ni qadriyatlar, maqsadlar, shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq yondashuvlar eng dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ta'limdagi baholash har doim ikki asosiy yo'nalishda shakllanib kelgan:

1. Bilimlarning mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash;
2. Ta'lim oluvchilarning rivojlanish darajasini tahlil qilish.

Uzoq vaqt davomida baholash faqat bilim va ko'nikmalarni aniqlash vositasi sifatida tushunilgan. Mazkur yondashuvda o'qituvchining roli - o'quvchini sinab ko'rish va unga baho qo'yishdan iborat bo'lgan. Tarixan, baholash tizimi nazorat qilish va tartibga solish vositasi sifatida shakllangan. Baholash ko'pincha intizomni ta'minlash, ierarxiyani belgilash, tanlab olish yoki cheklash vositasi sifatida ishlatilgan. Bu holat o'quvchilarning o'z o'quv faoliyatiga munosabatini shakllantirgan. Xususan, yurtimizda XX asrning oxiri - XXI asr boshlarida maktab baholash tizimi asosiy e'tiborni o'quvchining faktlarni bilishiga va ularni yoddan aytib bera olishiga qaratgan. Bu yondashuv o'quv faoliyatining ijodiy jihatlarini inkor qilgan. Baholash ko'proq ta'lim olishning yakuniy natijasini aniqlovchi mexanizm bo'lib xizmat qilgan.

XX asrning o'rtalaridan boshlab, ayniqsa, G'arb mamlakatlarida baholashga diagnostik va formativ (rivojlantiruvchi) yondashuvlar kirib keldi. Endilikda baholash:

- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida aloqa vositasi;
- o'quv jarayonini yo'naltiruvchi mexanizm;
- o'quvchining shaxsiy yutuqlarini aniqlovchi usul sifatida qarala boshlandi.

Bu yondashuvda kriteriyalar muhim ahamiyat kasb etdi:

- nima asosida baholash lozimligini aniqlovchi ko'rsatkichlar;
- baholashning adolatli va tushunarli bo'lishi uchun zarur me'yorlar.

Ta'lim tizimidagi eng asosiy muammolardan biri - bu mezonlarning noaniqligi va subyektivligidir. Ayniqsa, keng qo'llaniladigan besh ballik baholash tizimi ko'p hollarda:

- kam differensial, ya'ni ko'p tafsilotlarni ajratib bera olmaydi;
- shartli;
- subyektiv, ya'ni o'qituvchining shaxsiy qaroriga bog'liq;
- nofiltrli tizim bo'lib qolmoqda.

Bu esa o'quvchining bilim darajasini to'g'ri baholashga to'sqinlik qiladi. Zamonaviy xalqaro tajribada esa, aksincha, baholash bu:

- ko'p bosqichli;
- muayyan mezonlarga asoslangan;
- differensial va diagnostik yondashuv asosida olib boriladi.

Shuningdek, baholash vositalari ham rivojlanmoqda: testlar, portfoliolar, loyihaviy ishlar, kuzatuvlar va o'z-o'zini baholash kabi turli shakllar qo'llanilmoqda. Baholash tizimida muhim muammolardan biri - bu baholash mezonlarining aniq va shaffof bo'lishi, shuningdek, nazorat protseduralarining o'quvchilarning shaxsiy o'sishiga to'siq bo'lmasligi lozimligidir.



TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ta'lim tizimida baholash jarayoni o'quv natijasini qayd etishning oddiy vositasi sifatida emas, balki butun pedagogik faoliyatning ichki sifati, yo'nalishi va natijadorligini belgilovchi murakkab mexanizm sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan innovatsion baholash texnologiyalari masalasi pedagogika fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda ^[2]. Chunki ta'lim mazmuni yangilanayotgan, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv kengayib borayotgan, kompetensiyaviy model ustuvorlik kasb etayotgan sharoitda an'anaviy baholash usullari ko'p hollarda o'quvchining real rivojlanish dinamikasini, mustaqil fikrlash darajasini, amaliy tayyorgarligini hamda shaxsiy o'sish yo'nalishlarini to'liq aks ettira olmay qolmoqda. Shu bois baholash jarayonini yangicha ilmiy asoslar, zamonaviy vositalar va rivojlantiruvchi metodik mexanizmlar asosida tashkil etish zarurati kuchaymoqda. Innovatsion baholash texnologiyalarining mohiyatini ochib berish aynan mana shu ehtiyojdan kelib chiqadi ^[3].

Innovatsion baholash texnologiyalari tushunchasi, avvalo, baholash jarayoniga yangicha yondashuv, yangi vositalar, yangi mezonlar va yangi pedagogik maqsadlarning kirib kelishini anglatadi. Bunda "innovatsion" tushunchasi oddiy ravishda yangilikni emas, balki baholashning mazmuni, tashkil etilishi, qo'llanilish usullari va natijalarni tahlil qilish mexanizmlarida sifat jihatidan o'zgarish yuz berganini bildiradi. Demak, innovatsion baholash texnologiyalari deganda o'quvchilar bilimini, ko'nikma va kompetensiyalarini aniqlash, tahlil qilish, rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli vositalar, interfaol mexanizmlar va mezonli tahlil tamoyillariga asoslangan tizimli baholash shakllari tushuniladi. Mazkur ta'rif baholashni tor doiradagi nazorat amaliyotidan chiqarib, uni pedagogik boshqaruvning muhim tarkibiy qismiga aylantiradi.

Innovatsion baholash texnologiyalarining mohiyatini anglash uchun, eng avvalo, baholashning pedagogik tabiatini to'g'ri tushunish zarur. Baholash o'qitishdan keyin keladigan ikkilamchi faoliyat emas, balki o'quv jarayonining barcha bosqichlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan uzluksiz pedagogik jarayondir. U maqsadni aniqlashtirish, mazmunni tanlash, metodlarni moslashtirish, o'quvchi faolligini kuzatish, natijalarni tahlil qilish va keyingi pedagogik qarorlarni belgilashda faol ishtirok etadi. Shu sababli innovatsion baholash texnologiyalarining mohiyati faqat yangicha test yaratish yoki elektron tizimlardan foydalanishda emas, balki baholashni ta'limning rivojlantiruvchi, tahliliy va boshqaruvga yo'naltirilgan mexanizmga aylantirishda namoyon bo'ladi. Bunday baholash o'quvchining nimani bilishini emas, u qanday fikrlayotganini, bilimni qanday qo'llayotganini, qaysi bosqichda qiyinchilikka duch kelayotganini va qanday yordamga ehtiyoji borligini ham aniqlashga xizmat qiladi.


Mazkur texnologiyalarning mohiyati rivojlantiruvchi xarakterda ekanligi bilan ham ajralib turadi. An'anaviy baholash amaliyotida o'quvchining javobi ko'pincha to'g'ri yoki noto'g'ri mezoni asosida baholanadi, natija esa ko'proq yakuniy ko'rsatkich sifatida qayd etiladi. Innovatsion baholash texnologiyalarida esa jarayonning o'zi markaziy ahamiyat kasb etadi ^[4].

O'quvchining fikr yuritish yo'li, topshiriqni bajarish bosqichlari, tanlagan strategiyasi, o'zini baholash qobiliyati, xatodan xulosa chiqarish darajasi va keyingi rivojlanish nuqtalari ham baholashning muhim obyekti sifatida qaraladi. Bunda baholash pedagog tomonidan qo'yilgan hukm emas, balki o'quvchi rivojlanishi uchun yo'naltiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Natijada baholash o'quvchi uchun qo'rquv manbai emas, balki o'z imkoniyatlarini anglash, kamchiliklarini ko'rish va yutuqlarini mustahkamlash imkonini beruvchi pedagogik tayanchga aylanadi.

Innovatsion baholash texnologiyalarining yana bir muhim jihati ularning diagnostik xarakteridir. Zamonaviy baholash tizimi o'quvchining faqat egallagan bilim hajmini o'lchash bilan kifoyalanib qolmasdan, uning rivojlanish dinamikasini, kompetensiyaviy tayyorgarlik darajasini, mustaqil faoliyatga tayyorligini va shaxsiy o'sish ehtiyojlarini ham aniqlashi kerak. Shu ma'noda innovatsion baholash texnologiyalari o'quv jarayonida erta aniqlash, joriy kuzatish, tahliliy xulosa chiqarish va korreksion choralarni belgilash imkonini beradi. O'qituvchi uchun bunday yondashuv baholash natijalarini darsning keyingi bosqichlarini rejalashtirishda, individual yondashuvni kuchaytirishda va metodik qarorlarni qayta ko'rib chiqishda muhim axborot manbaiga aylantiradi. Demak, innovatsion baholash texnologiyalarining mohiyatida axborot olish, uni tahlil qilish va pedagogik boshqaruvga yo'naltirish funksiyasi mujassamdir.

Mazkur texnologiyalarni tasniflash masalasi ularning mazmuniy va funksional xususiyatlarini aniqroq anglash imkonini beradi. Innovatsion baholash texnologiyalarining tasnifi bir nechta mezon asosida amalga oshirilishi mumkin. Birinchi mezon sifatida baholashning maqsadiga ko'ra tasnifi ko'rsatiladi. Bu nuqtai nazardan diagnostik baholash, joriy baholash, shakllantiruvchi baholash, yakuniy baholash va rivojlantiruvchi baholash turlari ajratiladi. Diagnostik baholash o'quvchining boshlang'ich holatini aniqlashga xizmat qilsa, joriy baholash ta'lim jarayonining borishini kuzatadi ^[5]. Shakllantiruvchi baholash o'quvchi rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, yakuniy baholash erishilgan natijani umumlashtiradi, rivojlantiruvchi baholash esa o'quvchini keyingi bosqichga yo'naltirishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar aynan shu funksiyalarni o'zaro uyg'unlashtirgan holda qo'llanilganda o'zining to'liq pedagogik qiymatini namoyon etadi.

Ikkinchi muhim tasnifiy mezon baholash vositalarining shakliga ko'ra ajratish bilan bog'liqdir. Bu jihatdan innovatsion baholash texnologiyalari an'anaviy yozma yoki og'zaki nazorat bilan cheklanib qolmaydi. Ular elektron testlar, onlayn platformalar, interaktiv topshiriqlar, portfoliolar, loyiha ishlari, kuzatuv jadvallari, rubrikalar, chek-listlar, o'zaro baholash blankalari, o'zini o'zi baholash vositalari, vizual diagnostika shakllari va analitik teskari aloqa tizimlarini ham o'z ichiga oladi. Ushbu vositalarning umumiy xususiyati shundaki, ular baholashni ko'proq ko'p kanalli, dalillarga tayangan, shaffof va o'quvchi ishtirokini taqozo etuvchi jarayonga aylantiradi. Bunda o'qituvchi baholovchi yagona subyekt sifatida emas, balki baholash jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi pedagogik moderator sifatida namoyon bo'ladi (1-rasm).



1-rasm: O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bitiruv ishida innovatsion baholash texnologiyalarining samaradorligini aniqlash, monitoring qilish va takomillashtirish masalalari ham izchil tahlil qilindi. Natijada samaradorlikni baholashda aniqlik, ishonchlilik, rivojlantiruvchanlik, shaffoflik, boshqaruvga xizmat qilishi va o'quvchining individual rivojlanishini aks ettira olishi asosiy mezonlar sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi. Monitoring esa mazkur texnologiyalarning real natijasini kuzatish, baholash tizimidagi kuchli va sust tomonlarni aniqlash, pedagogik qarorlarni qayta ko'rib chiqish va amaliy takomillashtirish choralarini belgilashga xizmat qiluvchi uzluksiz jarayon sifatida talqin qilindi. Bu esa innovatsion baholash texnologiyalarini joriy etish bir martalik tadbir emas, balki doimiy tahlil, nazorat va yangilanishga tayangan murakkab tizim ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida yana bir muhim ilmiy xulosa shakllandiki, innovatsion baholash texnologiyalari o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim modelining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur texnologiyalar o'quvchini faqat baholash obyekti sifatida emas, balki o'z faoliyatini tushunuvchi, natijalarini tahlil qiluvchi, xatolaridan xulosa chiqaruvchi va keyingi rivojlanish yo'lini ongli ravishda belgilovchi faol subyektga aylantiradi. Shu nuqtai nazardan innovatsion baholash jarayoni nafaqat o'qituvchining nazorat faoliyatini, balki o'quvchining o'zini o'zi boshqarish, refleksiya yuritish va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini ham shakllantiradi.



Ish natijalari o'qituvchining kasbiy faoliyati nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Innovatsion baholash texnologiyalarini samarali qo'llash o'qituvchidan baholash metodologiyasini chuqur bilishni, mezonli yondashuv asosida ishlashni, raqamli vositalardan foydalanishni, teskari aloqani mazmunli tashkil etishni va natijalarni refleksiv tahlil qilishni talab etadi. Bu esa zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligida baholash madaniyati alohida o'rin tutishini ko'rsatadi. Shu sababli baholash tizimini takomillashtirish masalasi bevosita pedagoglarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish, raqamli savodxonligini oshirish va baholash jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni singdirish bilan bog'liqdir.

Mazkur bitiruv ishining umumiy natijasi sifatida aytish mumkinki, o'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalari ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilar rivojlanishini aniqroq kuzatish, pedagogik boshqaruvni kuchaytirish va baholashni rivojlantiruvchi mexanizmga aylantirishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Ularni samarali qo'llash uchun baholashning ilmiy-pedagogik mazmunini chuqur anglash, pedagogik, psixologik va didaktik asoslarini hisobga olish, mezonli yondashuvni yo'lga qo'yish, raqamli va interfaol vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish hamda monitoring va takomillashtirish tizimini izchil tashkil etish zarur. Ana shunday yondashuvdagina innovatsion baholash texnologiyalari ta'lim jarayonining tashqi atributi emas, balki uning ichki sifatini belgilovchi va natijadorligini oshiruvchi muhim omilga aylanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy qiymati shundan iboratki, unda innovatsion baholash texnologiyalari nazariy jihatdan yaxlit pedagogik hodisa sifatida talqin qilindi hamda ularni ta'lim amaliyotiga samarali joriy etishning muhim metodik yo'nalishlari asoslab berildi. Ishda ilgari surilgan xulosa va umumlashtirishlar baholash faoliyatini zamonaviylashtirish, o'qituvchilarning metodik imkoniyatlarini boyitish, o'quvchi faolligini kuchaytirish va ta'lim natijadorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Shu jihatdan ushbu bitiruv ishi innovatsion baholash texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va imkoniyatlarini ilmiy asosda yorituvchi, amaliyot uchun foydali bo'lgan yaxlit tadqiqot sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "2022-2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy Dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi 134-sonli Prezident Farmoni. 11.05.2022.
2. Chappuis J., Stiggins R.J., Chappuis S., Arter J.A. Classroom Assessment for Student Learning: Doing It Right, Using It Well. 2nd ed. - Boston: Pearson, 2012. - 432 p
3. Brookhart S.M. How to Create and Use Rubrics for Formative Assessment and Grading. - Alexandria, VA: ASCD, 2013. - 159 p
4. Ng E.M.W. Fostering pre-service teachers' self-regulated learning through self- and peer assessment of wiki projects // Computers & Education. - 2016. - Vol. 98. - P. 180 -191. - DOI: 10.1016/j.compedu.2016.03.015
5. Heil J., Ifenthaler D. Online Assessment in Higher Education: A Systematic Review // Online Learning. - 2023. - Vol. 27, No. 1. - P. 187-218. - DOI: 10.24059/olj.v27i1.3398
6. Sembey R., Hoda R., Grundy J. Emerging technologies in higher education assessment and feedback practices: A systematic literature review // Journal of Systems and Software. - 2024. - Vol. 211. - Article 111988. - DOI: 10.1016/j.jss.2024.111988
7. Shernazarov I.E. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarni xalqaro baholash tizimiga tayyorlashdagi vazifalar va ularning yechimlari. "Uzluksiz ta'lim" ilmiy-uslubiy jurnal 2021. № 5 son. Toshkent. -B.13-21.
8. Shernazarov I.E., Bektosheva S.R. O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish//Science and innovation international scientific journal. -V. 1 2022. -Pp.1570-1577
9. Shernazarov I.E., Iskandarov A.Y., Xasanova S.G'. Kimyo fanidan tabiiy savodxonlikni oshirishga doir topshiriqlar to'plami. Umumiy o'rta ta'lim maktablarini 14-15 yoshli o'quvchilari uchun//O'quv qo'llanma. 2021. -B. 324.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.